

SHAHAR HAYOTI ERKINLIKMI YOKI YOLG'IZLIK?**Dilnura Meyliyeva**

Yozuvchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16787861>

Sònggi paytlarda shaharda yashash kòplab qishloqliklarning orzusiga aylandi.

Yurtimizdagi ayrim insonlar shahar hayoti erkinlikka eltuvchi yagona yòl desa, boshqa insonlar bu hayotda yashash yolg'izlikka sabab bòladi deydi.

Xòsh, shaharda yashash qulaymi yoki qishloqda?

Hozirda yoshlarimiz shahar hayotini ma'qullashadi. Aslini olib qaraganda bu fikrlar tògri bòlishi mumkin. Chunki, shaharda doimiy elektr toki, gaz va kòplab shart-sharoitlar bor. Yana, anchagina aholining shaharga kòchib ketish sabablaridan biri bu-erkinlikdir.

Statistika ma'lumotlariga kòra, shahar markazida yashayotgan aksariyat aholi qishloqdan kòchib borgan va ularning 60-70% voyaga yetgan shaxslardir.

Biz shaharga kòchib boruvchilar bilan suhbat qurganimizda, ular bizga erkinlikni xohlashlarini va qishloq sharoitiga chiday olmasligi haqida fikr bildirishgan edi.

Tangani ikki tarafi bòladi deganlaridek, shaharda yashash oiladan uzoqda bòlib, begonalarga yaqin bòlishni òrgatadi degan qishloqliklar ham uchrab turdi. Negaki, bu haqiqiy insoniylikni his qiladiganlar uchun qiyin, albatta.

Shu bilan birga shaharda narx-navoning qimmatligi ayrim yurtdoshlarimizga noqulaylik tug'diryapti. Bunga biz shartnoma asosida òqiydigan talabani yoki qishloqdan ishlash uchun kelgan yolg'iz farzandning qiyinchiliklarini misol qilishimiz mumkin.

Qishloqda yashash qanchalik qiyin kòrinmasin, ammo mamlakatni oziq-ovqat va turli xil sanoat mahsulotlarining tarkibiy qismi bilan ta'minlaydigan qishloq aholisidir.

Biz iste'mol qiladigan sabzavotlar, mevalar, gòsht mahsulotlari, poliz ekinlari va un mahsulotlarining deyarli barchasi qishloqda yetishtiriladi.

Ehtimol, yoshlarimizning shaharga kòchib ketish sabablaridan biri bu yumushlarning og'irligidir. Lekin qishloqliklar qanchalik harakat qilmasin hanuzgacha doimiy elektr tokiga erishgani yòq.

Bu muammo ham qishloqda yashashni xohlamayotganlar uchun sabab bòla olar.

Kuzatishlarga kòra, ba'zi bir chekka hududlarda hali-hamon gaz yòqligi aytilmoqda. Gaz quvurlarning òtkazilmagani nafaqat aholiga balki katta-katta issiqxonadagi meva-sabzavotlarga qish faslida zarar yetkazishi mumkin.

Yana, qishloqda havoni tozalash va boshqa maqsadlarda kòplab daraxtlar ekiladi. Shu sababli, qishloqning havosi toza. Buni òzingiz ham shahar havosi bilan taqqoslab kòrishingiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, har kim òzini baxtli his qilgan joyida yashashi mumkin. Ammo, qishloqni tashlab shaharga ketib qolayotgan vatandoshlarimizdan tug'ilib òsgan joyini ham shaharga aylantirishga kòmaklashishini sòrab qolardik!